



XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING AHOLI TURMUSH DARAJASI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Fozilov Vahob

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0006-3239-7462

vaxob.fozilov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada 2020–2024-yillarda O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining aholi turmush darajasiga ta'siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Statistika ma'lumotlari asosida xizmatlar sektori hajmi, o'sish sur'atlari, bandlikdagi ulushi va jon boshiga xizmatlar ko'rsatkichlari baholanadi, aloqa-axborot, moliyaviy hamda yashash-ovqatlanish xizmatlarining yuqori dinamika ko'rsatgani aniqlanadi. Natijalar xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi va bandlikka qo'shgan hissasi ortib, farovonlik, iste'mol imkoniyatlari va ijtimoiy infratuzilma sifatini oshirishda barqaror drayverga aylanganini ko'rsatadi. Siyosiy xulosalar raqamli transformatsiya, hududiy muvozanat va kadrlar siyosatini kuchaytirishga yo'naltirilgan takliflar bilan boyitiladi.

Kalit so'zlar: xizmatlar sektori, turmush darajasi, bandlik, jon boshiga xizmatlar, raqamli transformatsiya, hududiy tafovutlar, inson kapitali.

ВЛИЯНИЕ СФЕРЫ УСЛУГ НА РАЗВИТИЕ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ

Фозилов Вахоб

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье теоретически и эмпирически анализируется влияние сферы услуг на уровень жизни населения Узбекистана в 2020–2024 гг. На основе статистических данных оцениваются объем и темпы роста услуг, доля занятости и показатели услуг на душу населения, выявляются лидирующие направления - связь и ИКТ, финансовые, гостинично-ресторанные услуги. Результаты подтверждают растущую роль услуг как устойчивого драйвера благосостояния, занятости и качества социальной инфраструктуры. Политические выводы подкреплены рекомендациями по цифровой трансформации, сокращению межрегиональных диспропорций и усилению кадровой политики.

Ключевые слова: сфера услуг, уровень жизни, занятость, услуги на душу населения, цифровая трансформация, региональные различия, человеческий капитал.

THE IMPACT OF THE SERVICE SECTOR ON THE DEVELOPMENT OF THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION

Fozilov Vahob

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. *This paper analyses, both theoretically and empirically, how the service sector has affected living standards in Uzbekistan during 2020–2024. Using official statistics, we assess service output and growth, employment shares, and per-capita service indicators, highlighting the fastest-growing segments like ICT, financial services, and accommodation-food services. The findings show that services have become a stable driver of welfare, employment, and social infrastructure quality, with rising contributions to GDP and household consumption. Policy implications emphasize accelerating digital transformation, reducing regional disparities, and strengthening human-capital and skills policies to sustain inclusive growth.*

Keywords: *service sector, living standards, employment, per-capita services, digital transformation, regional disparities, human capital.*

Kirish.

Aholi turmush darajasi - bu ko'p qirrali, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u aholining real daromadlari, iste'mol savatchasi hajmi, narxlar barqarorligi, bandlik darajasi va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda aholining farovonligini oshirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va daromadlarni ko'paytirishga qaratilgan tizimli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda **xizmat ko'rsatish sohasi** iqtisodiy barqarorlik va aholining turmush darajasini oshirishda yetakchi o'rin egallamoqda.

Chunki xizmatlar sohasi nafaqat aholi ehtiyojlarini qondiradi, balki iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadi. Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng faol va dinamik tarmoqlaridan biri sifatida **inson kapitali, innovatsiya va texnologik taraqqiyot** bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston iqtisodiyotida ushbu soha 2020–2024-yillar davomida yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 50 foizdan oshirib, milliy iqtisodiyotning asosiy **drayveri** sifatida shakllandi. Shu davrda xizmatlar tarmog'ida band bo'lgan aholi soni sezilarli darajada ortib, 2024-yilda 9,6 million kishidan oshdi. Bu mamlakatda xizmatlar sektori bandlikdagi eng yirik ulush — qariyb 56 foizni tashkil etayotganini ko'rsatadi (Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024-yil yakuni bo'yicha).

So'nggi yillarda xizmatlar sektori tarkibida **axborot va aloqa (68 foiz o'sish), ta'lim (14 foiz)** hamda **yashash va ovqatlanish xizmatlari (20 foiz)** kabi yo'nalishlarda sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Bu o'zgarishlar mamlakatda iqtisodiy modernizatsiya, urbanizatsiya va raqamli infratuzilma rivojining tezlashuvi bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuningdek, mehnat haqi miqdorining bosqichma-bosqich oshirilishi, namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar qurilishi va kommunal xizmatlar sifati yaxshilanishi — aholining umumiy turmush darajasini oshirayotgan muhim omillardan biridir. Shu jarayonda xizmat ko'rsatish sohasi aholining turmush madaniyatini yuksaltirish, iste'mol imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Har bir fuqaro, avvalo, iste'molchi sifatida xizmatlar tizimidan foydalanadi. Zarur oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari savdo xizmatlari orqali aholiga yetkaziladi. Transport va logistika tizimining takomillashuvi esa aholining erkin harakatlanishiga, vaqt va xarajatlarni tejashga imkon yaratadi. Uy xo'jaliklarida kir yuvish mashinalari, changyutkichlar va boshqa maishiy texnika vositalarining keng tarqalishi mehnat unumdorligini oshiradi, ayniqsa ayollar mehnatini yengillashtiradi.

Sog'liqni saqlash tizimining modernizatsiyasi — tibbiyot muassasalarining zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanishi, xususi klinikalarning kengayishi — aholining sog'lig'ini mustahkamlash va umr ko'rish davomiyligini uzaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim xizmatlari sohasi maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda bilim sifati va inson kapitalini rivojlantirishda yetakchi o'rin tutmoqda.

Umuman olganda, aholining xizmat turlariga bo'lgan ehtiyoji yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa yangi xizmat yo'nalishlarining paydo bo'lishi, infratuzilmaning kengayishi va xizmatlar sifati bo'yicha raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xizmatlar sohasining rivojlanishi — aholining real daromadlarini, yashash sharoitlarini va ijtimoiy barqarorligini oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va aholi turmush darajasiga ta'sirini kuchaytirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu borada Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida belgilangan yettita strategik yo'nalishning to'rtinchisi - "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" yo'nalishi xizmatlar sohasi orqali aholining farovonligini oshirishga qaratilgan 55 ta aniq chora-tadbirni o'z ichiga oladi (Farmon, 2022).

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, iqtisodiy o'sishning tarkibiy drayveri, yangi ish o'rinlarini yaratish manbai hamda aholining turmush darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi. O'zbekiston Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunida xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 50 foizdan oshib, 9,6 milliondan ortiq aholi bandligini ta'minlagan. Bu esa mamlakatda xizmatlar sektori bandlikning 56 foizini tashkil etayotganini ko'rsatadi (O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024).

Xizmatlar iqtisodiyotining nazariy asoslari ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda yoritilgan. Clark (2018) tomonidan ilgari surilgan "Service Economy" konsepsiyasida xizmatlar sektori ishlab chiqarishdan ustun bo'lgan postindustrial iqtisodiyot modeli sifatida talqin qilinadi. Drucker (2015) o'zining innovatsion menejment nazariyasida xizmatlar tarmog'ini iqtisodiy o'sishning asosiy omili — bilim, texnologiya va inson kapitali uyg'unligi bilan izohlaydi.

G'oyibnazarov (2006) esa O'zbekiston sharoitida xizmatlar tarmog'ining iqtisodiy o'sishdagi o'rnini statistik tahlil qilgan holda, xizmatlar orqali aholining daromadlari va bandligi ortishini asoslab bergan.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi nafaqat iqtisodiy o'sishning barqaror manbai, balki aholi turmush darajasi va inson kapitalini rivojlantirishning strategik omili sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois mazkur tadqiqotda xizmatlar tarmog'ining 2020–2024-yillardagi rivojlanish tendensiyalari, uning bandlik va daromadlarga ta'siri hamda farovonlik bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy va empirik asosda tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot "xizmat ko'rsatish sohasining aholi turmush darajasi rivojlanishiga ta'siri" masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xizmatlar sektorining kengayishi va uning aholining farovonligi bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, shuningdek Vazirlar Mahkamasi qarorlari, iqtisodiyot va xizmatlar sohasi bo'yicha milliy strategiyalar (jumladan, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", "Raqamli O'zbekiston – 2030", "Har bir oila – tadbirkor"

dasturi) hamda xalqaro tashkilotlarning (Jahon banki, BMT, ILO, UNDP) tegishli tahliliy hisobotlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida xizmatlar sohasining aholi turmush darajasiga ta'sirini aniqlash maqsadida statistik tahlil, qiyosiy tahlil, empirik tahlil, trend tahlili va analitik umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasi 2020–2024-yillar davomida yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida barqaror o'sishni namoyish etdi. 2020-yilda xizmatlar hajmi 219,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 818,4 trln so'mga yetdi, ya'ni 3,7 barobar o'sish qayd etildi.

1-jadval

Xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi o'rni va o'sish tendensiyalari

Yil	Xizmatlar hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %	Kichik biznes ulushi, %	Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm
2020	219 978,5	–	57,5	6 426,1
2021	284 388,1	112,9	60,1	8 145,1
2022	366 891,0	114,1	65,1	10 292,0
2023	649 806,4	116,3	67,4	17 845,7
2024	818 428,3	112,9	73,2	22 017,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024-yil yakunlari.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xizmatlar sohasi so'nggi besh yilda **o'rtacha 14–16 %** atrofida barqaror o'sish sur'atlarini saqlab kelmoqda. Eng sezilarli o'sish 2023-yilda qayd etilgan (116,3 %), bu pandemiyadan keyingi davrda iqtisodiyot tiklanishining va ichki talabning oshishining natijasidir. Kichik biznesning ulushi 2020-yildagi 57,5 % dan 2024-yilda 73,2 % gacha ko'tarilgan. Bu esa xizmatlar sohasida **xususiyl sektorning dominant mavqega ega bo'layotganini** anglatadi. Xizmatlar hajmining ko'payishi bilan birga, aholining jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar miqdori ham deyarli **3,4 barobar** o'sdi. Bu holat aholining real farovonligi oshayotganidan, xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayayotganidan dalolat beradi.

Xizmatlar sektori rivojlanishida hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Quyidagi jadvalda 2024-yil yakunlari bo'yicha xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlari keltirilgan.

2-jadval

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining rivojlanish dinamikasi

Hudud	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Toshkent shahri	298 825,6	36,5	116,8
Samarqand	58 875,7	7,2	114,1
Farg'ona	55 200,7	6,7	112,3
Toshkent viloyati	56 317,9	6,9	112,8
Qashqadaryo	43 255,9	5,3	110,9
Andijon	41 807,5	5,1	113,1
Buxoro	34 495,1	4,2	111,2

2-jadval ma'lumotlari bo'yicha xududiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri mamlakat xizmatlar tarmog'ining markaziy o'sish nuqtasi bo'lib qolmoqda - 2024-yilda umumiy xizmatlar hajmining **36,5 %** aynan poytaxt hissasiga to'g'ri kelgan. Bu yuqori natija **moliyaviy xizmatlar, transport-logistika, IT va turizm infratuzilmasining rivojlanishi** bilan izohlanadi. Samarqand viloyati (7,2 %) va Farg'ona viloyati (6,7 %) so'nggi yillarda yangi mehmonxona tarmoqlari, ta'lim xizmatlari va servis korxonalarining faoliyati hisobiga sezilarli o'sishga erishdi.

Bu mintaqalarda xizmatlar sohasi **turizm klasterlari** bilan bevosita bog'liq holda rivojlanmoqda. Hududlar o'rtasidagi tafovut iqtisodiy markazlashuvning mavjudligini ko'rsatsa-da, mintaqaviy balansli rivojlanish siyosati bu tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. 2024-yilda xizmatlar tarkibida quyidagi tarmoqlar yetakchilik qilmoqda:

3-jadval

Xizmat turlari kesimida o'sish tendensiyalari

Xizmat turi	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	183 314,5	22,4	110,6
Savdo xizmatlari	149 599,8	18,3	111,8
Transport xizmatlari	145 124,4	17,7	108,6
Moliyaviy xizmatlar	135 509,5	16,5	120,6
Aloqa va axborotlashtirish	56 174,2	6,9	125,8
Ta'lim xizmatlari	30 036,5	3,7	113,4
Sog'liqni saqlash xizmatlari	15 778,7	1,9	109,4

3-jadval tahliliga ko'ra, **yashash va ovqatlanish xizmatlari** hamda **savdo** sektori jami xizmatlar hajmining qariyb **40 foizini** tashkil etadi. Bu tarmoqlar aholining kundalik hayot sifati bilan bevosita bog'liq bo'lib, iste'mol va ichki talab barqaror o'sishini ta'minlamoqda. Eng yuqori o'sish sur'ati **aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (125,8 %)** sohasida qayd etilgan. Bu **raqamli iqtisodiyot, elektron savdo, onlayn xizmatlar va IT startaplarning** jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. Moliyaviy xizmatlarda 120,6 % o'sish kuzatildi - bu bank tizimidagi raqamli to'lovlar, mikromoliyaviy xizmatlar va sug'urta segmentining kengayishiga bog'liq. Ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarining o'sish sur'atlari nisbatan barqaror bo'lib, ular inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Demak, xizmat turlarining kengayishi aholining **moddiy farovonligidan tashqari, ma'naviy va intellektual sifat ko'rsatkichlarini ham oshirmoqda.**

Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2020-yildagi 6,4 mln so'mdan 2024-yilda **22,0 mln so'mga** oshgan. Bu **3,4 barobar o'sish** aholining turmush sifati sezilarli yaxshilanganini anglatadi. Toshkent shahri bo'yicha ushbu ko'rsatkich **125,1 mln so'm**, eng past qiymat esa Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida qayd etilgan.

Bu tafovutlar iqtisodiy markazlarning (poytaxt va yirik viloyatlar) xizmatlar infratuzilmasi jihatidan ustunligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, **raqamli xizmatlarning hududiy kirib borishi** mintaqalar o'rtasidagi tafovutni qisqartirish uchun strategik imkoniyat yaratmoqda.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning **asosiy o'sish drayveri** sifatida shakllandi. Mazkur soha yalpi ichki mahsulot tarkibida 50 foizdan ortiq ulushni egallab, iqtisodiy faollik, bandlik va aholi daromadlari o'sishiga sezilarli hissa qo'shdi. Bu jarayon

xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi strukturaviy rolini mustahkamlab, mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishning poydevorini shakllantirmoqda. Empirik tahlillar natijasida aniqlanishicha, xizmatlar sektori kengaygani sari aholining jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi ham muntazam ortib bormoqda. Xususan, 2020-yildagi 6,4 million so'mlik ko'rsatkich 2024-yilda 22 million so'mga yetgan. Bu farq aholining real farovonligi, iste'mol imkoniyatlari va xizmatlardan foydalanish ko'lamining sezilarli kengayganini ifodalaydi.

Xizmat tarmoqlari tarkibida **aloqa va axborotlashtirish (125,8 % o'sish)**, **moliyaviy xizmatlar (120,6 %)** va **yashash hamda ovqatlanish xizmatlari (110,6 %)** eng yuqori sur'atda rivojlandi. Ushbu o'sish mamlakatda iqtisodiy modernizatsiya, urbanizatsiya va raqamli infratuzilmaning rivojlanishini tezlashtirib, xizmatlar sektorining iqtisodiyotni raqamli o'sishga yo'naltiruvchi mexanizmga aylanganini ko'rsatmoqda. Natijada, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, uy xo'jaliklari daromadlarining ortishi va xizmatlar infratuzilmasining kengayishi orqali aholining turmush sifati sezilarli darajada yaxshilandi.

Birinchidan, xizmatlar sohasi hozirgi davrda iqtisodiy o'sishning **barqaror manbai** sifatida shakllanib, ishlab chiqarish sohalaridan farqli o'laroq, tashqi iqtisodiy omillarga kamroq bog'liq holda ichki talabni rag'batlantiruvchi rolni bajarmoqda.

Ikkinchidan, sohada **kichik biznesning ulushi** yildan-yilga ortib, 2020-yildagi 57,5 foizdan 2024-yilda 73,2 foizga yetgan. Bu jarayon xususiy sektor faolligi, xizmatlar diversifikatsiyasi va iqtisodiy liberallashtirishning kuchayganini bildiradi.

Uchinchidan, **raqamli transformatsiya** xizmatlar sohasining yangi rivojlanish bosqichiga asos soldi. Aloqa, axborot va moliyaviy xizmatlardagi jadal o'sish elektron to'lovlar, internet-savdo va onlayn xizmatlarning kengayishiga sabab bo'ldi.

Natijada, xizmatlar sektori zamonaviy texnologiyalar asosida tezkor, shaffof va qulay tizimga aylandi.

To'rtinchidan, **hududlararo tafovutlar** hali saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularni kamaytirish yo'nalishida sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlari iqtisodiy markaz sifatida xizmatlar hajmida yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Qashqadaryo, Buxoro va Andijon viloyatlarida xizmatlar infratuzilmasi izchil kengaymoqda. Beshinchidan, xizmatlar sohasi **ijtimoiy barqarorlik va inson kapitali rivojining hal qiluvchi omiliga** aylanib bormoqda. Ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm va kommunikatsiya xizmatlarining kengayishi aholining hayot sifati, madaniy saviyasi va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining **innovatsion va ijtimoiy poydevori** sifatida shakllanmoqda. U nafaqat yalpi ichki mahsulot o'sishiga, balki aholi farovonligi, ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Kelgusi bosqichda xizmatlar sektorini **raqamli transformatsiya, hududiy diversifikatsiya va ijtimoiy samaradorlik** tamoyillari asosida rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli barqaror o'sishini, aholining turmush sifatini va iqtisodiy farovonligini ta'minlashning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Clark, J. (2018) *The Service Economy*. London: Routledge. <https://www.routledge.com>.

Drucker, P. (2015) *Innovation and Entrepreneurship*. Harper Business. <https://www.harpercollins.com>

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-60-son Farmon: "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"*. <https://lex.uz>.

G'oyibnazarov B.K. (2006) *"O'zbekiston Respublikasida milliy hisoblar tizimini ishlab chiqishning ilmiy metodologik asoslari" (statistik aspekt) i.f.d. darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati*. –T.: TDIU. -32.

ILO (2023) *World Employment and Social Outlook: Trends 2023*. <https://www.ilo.org>.

IMF (2024) Republic of Uzbekistan: Staff Report for the Article IV Consultation. <https://www.imf.org>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023) PF-82-son Farmon: Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish... <https://lex.uz>

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2024) Xizmatlar sohasi bo'yicha ko'rsatkichlar, 2020–2024. <https://stat.uz>

UNCTAD (2024) World Investment Report 2024. <https://unctad.org>.

UNDP (2024) Social Protection and Digital Inclusion in Central Asia. <https://www.undp.org>.

World Bank (2024) Uzbekistan Economic Update (Fall 2024). <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>.